

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DS.c.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

SALIMOVA ZEBO RUSTAM QIZI

TURK VA O‘ZBEK TILLARIDA INSON OBRAZINING
ZOOMORF HAMDA FITOMORF KOMPARATIV
BIRLIKLARDA IFODALANISHI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

UO‘K: 811.512.161+811.512.133:81’373

КБК: 81.2-3(5 Tur) + (5 O‘zb)

S-17

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Salimova Zebo Rustam qizi

Turk va o‘zbek tillarida inson obrazining zoomorf hamda fitomorf
komparativ birliklarda ifodalanishi..... 3

Салимова Зебо Рустам кизи

Выражение образа человека в сравнительных зооморфных и
фитоморфных единицах в турецком и узбекском языка 21

Salimova Zebo Rustam kizi

Expression of human image in zoomorphic and phytomorphic
comparative units in Turkish and Uzbek languages..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 45

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DS.c.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

SALIMOVA ZEBO RUSTAM QIZI

**TURK VA O‘ZBEK TILLARIDA INSON OBRAZINING
ZOOMORF HAMDA FITOMORF KOMPARATIV
BIRLIKLARDA IFODALANISHI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/Fil1308 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsuos.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Omonov Qudratulla Sharipovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Dadaboyev Hamidulla Aripovich
filologiya fanlari doktori, professor

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori institute

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01.raqamli ilmiy kengashning 2023-yil "___" _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent, Mirobod tumani, Shahrizabz ko'chasi, 16-uy. Tel.: (+998 71) 233-45-21; faks: (+998 71) 233-52-24; e-mail: info@tsuos.uz.)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent, Mirobod tumani, Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel.: (+998 71) 233-45-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "___" _____ kuni tarqatildi.

(2023-yil "___" _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

A.M. Mannonov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,
filol.f.d., professor

R.A. Alimuhamedov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi,
filol.f.d., dotsent

X.Z. Alimova

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,
professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligining kognitiv lingvistika, til va madaniyat, til va tafakkur hamda til va jamiyat bilan bogʻliq boʻlgan lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, etnolingvistika va antropolingvistika sohalaridagi ilmiy izlanishlar tilni jamiyat, atrof-muhit hamda kishilarni oʻrab turgan borliq bilan birgalikda tahlil etishni taqozo qilmoqda. Til umumbashariy qadriyat sifatida xalqning taqdiri, turmush tarzi, maʼnaviy boyligi, millatning saviyasi, ruhiyati bilan chambarchas bogʻlangan boʻladi. Ana shunda til va etnosni bir butun mohiyat sifatida tadqiq etish imkoniyati yuzaga keladi. Shuningdek, qardosh turkiy tillarning leksikasini har tomonlama tadqiq etish hozirgi kunda amalga oshirilishi zarur boʻlgan muammolardan biridir.

Dunyo tilshunosligida olamni bilishda milliy-madaniy, lingvogeografik va lingvoaksiologik omillar, olam lisoniy manzarasining shakllanishida madaniyatlararo aloqaning oʻrni masalalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Olam manzarasi til, din, adabiyot orqali ifodalanadi, muayyan madaniyatga oid insonlar faoliyatining verballashuvida namoyon boʻladi va etnosga xos madaniy kodlarni, stereotip tushunchalarni yuzaga keltiradi. Chunonchi, inson xarakteri va xususiyatini ifodalovchi zoonim hamda fitonimli madaniy kodlarning tahlili tildagi umumiylik va xususiylik masalalarini yoritishda muhim masalalardan hisoblanadi. Ular jamiyat hayoti, psixologiyasi, har bir xalqning urf-odati, mentaliteti, madaniyati va axloqini koʻrsatuvchi oʻziga xos barometr boʻlib xizmat qiladi.

Keyingi yillarda oʻzbek tilshunosligida, xususan, turkologiyasida olam manzarasida muayyan lisoniy birliklarning tutgan oʻrnini chuqur tadqiq etish yoʻnalishi ustuvorlik kasb etmoqda. Bu borada oʻzbek va qardosh turkiy tillar qiyosiga bagʻishlangan tadqiqotlar muhim hisoblanadi. Chunki “turkiy tillarning katta oilasiga mansub boʻlgan oʻzbek tili tarixi xalqimizning koʻp asrlik kechmishi, uning orzu-intilishlari, dard-u armonlari, zafarlari va gʻalabalari bilan chambarchas bogʻliqdir”¹. Shu maʼnoda oʻzbek va turk tillaridagi inson xarakteri va xususiyatini ifodalovchi zoomorf hamda fitomorf komparativ birliklarning qiyosiy tadqiqi ikki qardosh tilda olam manzarasining aks ettirilishida umumiy va xususiy jihatlarini aniqlashga keng imkoniyatlar yaratadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda oʻzbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisi”gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy taʼlim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2020- yil 16-apreldagi PQ-4680-son “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qarorlari hamda boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oʻzbek tiliga davlat tili maqomi berilganining oʻttiz yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimdagi nutqi. – Toshkent, 21 oktyabr, 2019.

belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalarni tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari” ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Dunyo tilshunosligida inson suvrati va siyratini ifodalovchi birliklarga doir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, V.Ubiyko rus tilidagi inson xarakteri va tashqi koʻrinishini bildiradigan sifatlarni², T.Metelkina esa ingliz tilidagi inson axloqini ifodalaydigan sifatlarni tadqiq etgan³. Shuningdek, ingliz va rus tillarining lingvistik madaniyatlarida shaxs qiyofasini yaratishga imkon beradigan oʻziga xos ekspressiv-baholovchi birliklar tadqiqi ham amalga oshirilgan⁴.

Oʻzbek tilshunosligida ham bu mavzuda ayrim ishlar bor⁵. Jumladan, F.Abdujabbarovning “Qutadgʻu bilig” dagi shaxs belgi-xususiyatini anglatuvchi leksika” mavzusidagi dissertatsiyasi⁶, D.Baxronovning “Antropozoomorfizmlarning semantik va lingvokulturologik xususiyatlari (oʻzbek va ispan tillari materialida)”⁷ nomli tadqiqotida inson feʼl-atvorining zoomorf birikmalar orqali ifodalanishi oʻrganilgan. Mazkur ishda berilgan maʼlumotlarga koʻra, ispan tilshunoslaridan A.Pamiesning tadqiqotida ispan tilidagi baʼzi zoometaforalarning struktur va etimologik xususiyatlari, Ye.Dalmaun tomonidan ispan izohli lugʻatlari asosida zoonimlarning leksikografik jihati tadqiq etilgan. M.Morales zoomorfizmlar maʼnolarining muallif xohishiga koʻra oʻzgaruvchanlik xususiyatini Xuan Manuel asarlari boʻyicha ilmiy-nazariy dalillagan. B.S.Martinning fikricha, zoomorfizmlar hayvonot dunyosiga xos xususiyatlarning insonga koʻchishi orqali hosil boʻlgan metaforik mazmundir⁸. S.G. Vatletsov zoomorfizmlarni voqea-hodisalarni bildirishiga koʻra guruhlariga ajratgan; .Kiong zoomorfizmlarni sistem-struktur jihatini oʻrgangan, V.Kamenskaya va S.Ts.Ogdonova ilk tadqiqotlarida zoonim va zoomorfizmni bir-

² Убийко В. Концептосфера человека в семантическом пространстве языка. – Москва: Вестник ОГУ, 2004. – С.37-40.

³ Метёлкина Т. Историко-ономазиологическое исследование группы английских прилагательных, обозначающих моральные качества человека (проблема семантического эпигенеза) // Дисс. канд. филол. наук: М. Тореза. – Москва, 1988. – С.239.

⁴ Метельская Е. Оценка человека через образы животных в разговорно-сленговой форме английского языка // Основные проблемы лингвистики и лингводидактики. Сборник статей III Международной научно-практической конференции. – Астрахань, 2009. – С.84-87.

⁵ Djumabayeva J. va boshqalar. Doston matnidagi zoomorfizmlar va ularning uslubiy xususiyatlari // “Oriental Art and Culture” scientific-methodical journal, 2020. – B. 137-143; Marufova Z. Oʻzbek mumtoz sheʼriyatida zoonimlar vositasida goʻzallik ifodalash // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Scientific journal 1(3), 2021. – B. 307-311; Koshgʻariy M. Devonu lugʻotit turk. I tom. – Toshkent, 1960. – B.311.

⁶ Абдужабборовва Ф. “Кутадгу билиг”даги шахс белги-хусусиятини англатувчи лексика // Филол. фан. ном. дисс. Автореф. – Тошкент, 2011. – Б.162.

⁷ Бахронова Д. Антропозооморфизмларнинг семантик ва лингвокультурологик хусусиятлари (ўзбек ва испан тиллари материалida) Дисс. Автореф. Тошкент, 2017.

⁸ Pamies A.B. Extra ión automáti a de olo a iones e modismos. – Cuadernos de fraseología galega. – № 6. – pp.191-203; almau L.B. Los artí ulos lexi ográfi os de zoónimos en di ionarios españoles de lengua general. IULA – Universitat Pompeu abra. – 539 p.; Morales M. El simbolismo animal en la cultura medieval, Espacio, Tiempo y Forma. – Medieval. – pp. 229-255.; Sanz Martin B. E. Las Metáforas oomorfas desde el Punto de Vista Cognitivo. Íkala Revista de Lenguaje Cultura. – Colombia, Vol. 20, Issue 3, 2015. – pp. 361-384.

biriga sinonim tarzida keyinchalik metaforaga nisbatan zooxarakteristika atamasini qo'llagan. Keyinchalik zoomorfizm terminini ma'qullab zoomorfizmlarni metaforik ma'no hosil iluvchi til birliklari sifatida ko'rsatgan. Rus tilshunosligida F.Guketlova uch tilni taqqoslab, zoomorfizmlar milliy madaniyatni yorqin ifodalovchi til birliklari ekanligini yoritgan⁹. K.Asabin ingliz tilidagi zoometaforalarning etnokonnnotatsiyasini, V.Solntseva uch tilda mavjud zoonimlarning so'z yasashdagi funksional imkoniyatlarini, A.A.Kipriyanova frazeologik birliklar paremiyalar tarkibidagi zooleksemalarning funksional xarakteristikasini tadqiq qilgan¹⁰.

Turkiy tillarda o'simlik nomlari monografik aspektda keng tadqiq etilgan. Tatar tilshunosligida sabzavot va mevalar nomlarini E.R.Axmetova¹¹, xalqona o'simlik nomlarini N.B.Burganova¹², chuvash tilidagi daraxt, o't-o'lan nomlari va ularning etimologiyasi Yu.Dmitrieva¹³, mariy tilidagi o'simlik nomlari A.S.Yefremov¹⁴, qozoq tilidagi o'simlik nomlarining xalqona va adabiy variantlari, ayrimlarining etimologiyasi B.K.Kaliev, mazkur tilda o'simliklarning xalqona nomlanishi G.I.Uyukbaeva¹⁵, ozarbayjon tilidagi o'simliklarni ifodalovchi leksik birliklar qiyosiy-tarixiy aspektda E.S.Kuliev¹⁶, turkman tilidagi o'simliklarning xalqona va ilmiy nomlari V.V.Nikitin, B.B.Kerbabaev¹⁷, udmurt dialektiga xos o'simlik nomlari B.Sh.Zagulyayevalar¹⁸ tomonidan o'rganilgan. Mordovan tili floristik leksikasini A.M.Grebneva tadqiq etgan¹⁹. Ayniqsa, turkiy tillar va oltoy tillaridagi o'simlik nomlarining qiyosiy tadqiqi, turkiy tillar o'simliklar leksikasidagi umumoltoy, mo'g'ul

⁹ Гукетлова Ф. . Зооморфны код культуры в языково картине мира (на материале французского кабардино-черкесского и русского языков). Автореф. Дисс. докт. филол. наук. – ., 2009

¹⁰ Ватлецов С.Г. Систематика зооморфно лексики и её англо-русская эквивалентность Автореф. Дисс. канд. филол. наук. – Волгоград, 2001. – с.; Кьонг .К. Системно-структурная организация зооморфизмов русского языка Автореф. Дисс. канд. филол. наук. – Воронеж . – с.; Каменская В. . Аксиологически аспект усто чивых зооморфных сравнени и зооморфных пареми испанского языка. Автореф. Дисс... докт. филол. наук – Воронеж . – с.; Огдонова Ц.Ц. Проблема типологии концептов в современно лингвистике. – ркутск, 2013. – 3 с. Солнцева . Сопоставительны анализ зоонимов русского французского и немецкого языков в этносемантическом аспекте Автореф. Дисс. докт. филол. наук – Омск . – 5 с.; Асабин . Способы интерпретации этноконнотаци в межкультурно коммуникации. – Уфа . – 3 с.; Киприянова А. Функциональные особенности зооморфизмов (на материале русского англи ского французского и новогреческого языков) Автореф. Дисс. канд. филол. наук. – Краснодар . – 93 с.

¹¹ Ахметова Э. Названия овощей и фруктов в татарском языке // Автореф. канд. филол. наук – Казань, 2012. – С. 29.

¹² Бурганова Н. О татарских народных названиях растений // Вопросы лексикологии и лексикографии – Казань, 1976. – С. 125-141.

¹³ Дмитриева Ю. Названия деревьев в чувашском языке // Проблемы исторической лексикологии чувашского языка. – Чебоксары, 1980. – С. 28-36.

Дмитриева Ю. К этимологии названий травянистых растений в чувашском языке // Исследования по лексикологии и фразеологии чувашского языка. – Чебоксары, 1982. – С. 16-55.

Дмитриева Ю. К этимологии названий травянистых растений в чувашском язык // Чувашский язык: Проблемы исторической лексикологии. – Чебоксары, 1986. – С. 43-64.

¹⁴ Ефремов А. Названия растений марийского языка: (травянисто-ягодная флора) // Автореф. Дисс. канд. филол. наук. – Тарту, 1986. – С.16.

¹⁵ Калиев Б. Названия растений в казахском языке // Автореф. Дисс. д-ра филол. наук. – Алма-Ата, 1991. – С. 47. Уюкбаева Г. Народные наименования растений в казахском языке // Автореф. Дисс. канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1983.

¹⁶ Кулиев Э. Фитонимы в азербайджанском языке (опыт историко-типологического анализа) // Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Баку, 1987. – С. 24

¹⁷ Никитин В., Кербабев Б. Народные и научные туркменские названия растений. – Ашхабад: Наука, 1962.

¹⁸ Загуляева Б. Названия растений в удмуртских диалектах // Вопросы диалектологии и лексикологии удмуртского языка. – Ижевск, 1990. – С. 39-52.

¹⁹ Гребнева А. Флористическая лексика мордовских языков // Автореф. Дисс. канд. филол. наук. – Саранск, 1984.

tili qatlamlari tadqiqi borasida L.V.Dmitrievaning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega²⁰.

O‘zbek tilshunosligida O.Latipovning ilmiy izlanishi rus, o‘zbek va tojik tillarida uy hayvonlari nomlarining semantik strukturasi tahliliga bag‘ishlangan; B.Zaripov Alisher Navoiy asarlarida qo‘llanilgan zoonimlarning badiiy san‘at turlarini hosil qilishdagi o‘rnini tadqiq etgan; G. Hakimova ingliz tili zoonim komponentli frazeologik birliklarining struktur-semantik jihatiga to‘xtalib o‘tgan²¹. Shuningdek, turk tilida bir qator mavzuga doir ilmiy ishlar, maqolalar bor²². Biroq hozirgacha turk va o‘zbek tillaridagi inson xarakteri va tashqi ko‘rinishi bilan bog‘liq zoomorf hamda fitomorf komparativ birliklar qiyosiy o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Tarjimashunoslik, qiyosiy tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslikning dolzarb muammolari” mavzusidagi yo‘nalishida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi turk va o‘zbek lisoniy manzaralarida inson xarakter-xususiyatini bildiruvchi zoomorf hamda fitomorf komparativ birliklarni lingvomadaniy jihatdan aniqlash, ularning semantikasida hayvonot va o‘simliklar olamining o‘ziga xos aks etishini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

olam lisoniy manzarasini tashkil etuvchi omillar hamda metaforalar milliy-madaniy tafakkurning mahsuli ekanligini asoslash va olam lisoniy manzarasida turk va o‘zbek tillardagi zoomorf hamda fitomorf komparativ birliklarning tutgan o‘rnini aniqlash;

turk va o‘zbek tillaridagi inson ichki va tashqi qiyofasini ko‘rsatuvchi zoonimlarni yoritish;

fitomorf komparativ birliklarning turk va o‘zbek tillari olam lisoniy manzarasini ifodalovchi vosita ekanligini dalillash;

²⁰ Дмитриева Л. Названия растений в тюркских и других алтайских языках // Очерки сравнительной лексикологии алтайских языков. – Ленинград, 1972. – С. 151-223.

²¹ Латипов О. . Анализ семантической структуры тематического пространства дома и животных в разносистемных языках (в материале русского узбекского и таджикского языков) Автореф. Дисс. канд. филол. наук. – 3 с.; Зарипов Б. Зoonимларнинг бадий сан ат турларини хосил или даги и тироки (Алишер Навоий асарлари асосида) Филол. ф. наук. автореф. – 93 б.; Хакимова Г.Э. Зoonим компонентли фразеологик бирликларнинг структурави ва семантик хусусиятлари Филол. ф. н... автореф. – 39 б.

²² Yıldırım A. Anlam bilim bakımından Rusça zoonimler.//Yüksek Lisans Tezi, Erciyes Üniversitesi – Kayseri, 2016. – S. 231; Bayar A. Çağdaş rus dilinde zoonim kavramı içeren deyimlerin çağdaş Türkçe ile karşılaştırılması. – Ankara, 2012. – S. 811-822; Yüce A. Evliya alintilarında hayvan sembolizmi. // Türk Dili ve Edebiyatı Anabilim Dalı Yüksek Lisans Tezi. – Antalya, 2022; Şerif Aktaş. Refik Halit Karay – Ankara: Akçağ Yayınları, 2014. – S. 176; Akyuz Kenan. Modern Türk Edebiyatının Ana Çizgileri 1860-1923. – İstanbul: İnkilâp Kitabevi, 2015. – S. 270; Armutak Altan. Doğu ve Batı Mitolojilerinde Hayvan Motifi-1. Memeli Hayvanlar // İstanbul Üniversitesi Veterinerlik Fakültesi Dergisi 2, sy. 28, 2002. – S. 411-427; Banarlı Nihad Sami. Resimli Türk Edebiyatı Tarihi II. – İstanbul: Milli Eğitim Bakanlığı Yayınları, 2004; Gürbüz Beydiz Mustafa. “Mitolojiden Sanata Hayvan İmgesi” – İstanbul: Arkeoloji ve Sanat Yayınları, 2016. – S. 308; Çoruhlu Yaşar. Kozmolojik, Mitolojik, Astrolojik, Dinî ve Edebî Tasavvurlara Göre Türk Sanatında Hayvan Sembolizmi. – Konya: Kömen Yayınları, 2014; Doğan Levent. Türk Kültüründe Hayvanlar ve Hayvan isimleri // Dergipark, sy. 12, 2001. – S. 615-659; Ekineker Orhan. Türklerde Hayvan Kültü ve Bilmecelere yansması // Yüksek Lisans Tezi, Dicle Üniversitesi, 1996; Erişenler Satı. Refik Halit Karay’ın Öyküleri – Türk Dili Türk Öykücülüğü Özel Sayısı, 1975. S. 65-75; Ertap Önder. Divan Şiirinde Hayvan Motifi // Yüksek Lisans Tezi, Balıkesir Üniversitesi Türk Dili ve EdebiyatıEğitimi Ana Bilim Dalı – Balıkesir, 1996.

o‘zbek va turk tilidagi zoomorf hamda fitomorf komparativ birliklarning badiiy asarlarda qo‘llanilishini tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida turk va o‘zbek tillaridagi inson tashqi qiyofasi hamda xarakter-xususiyatini bildiruvchi zoomorf hamda fitomorf komparativ birliklar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini turk va o‘zbek tillaridagi inson tashqi qiyofasi hamda xarakter-xususiyatini bildiruvchi zoomorf hamda fitomorf komparativ birliklarning funksional-semantik, pragmatik va kognitiv xususiyatlarini tahlil qilish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, lingvomadaniy hamda etnolingvistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

zoomorf hamda fitomorf komparativ birliklar turk va o‘zbek xalqining lingvomadaniy merosi sifatida inson ichki va tashqi qiyofasini ko‘rsatuvchi eng muhim vositalar ekanligi isbotlangan;

zoomorf hamda fitomorf komparativ birliklar turk va o‘zbek lisoniy manzarasini ifodalovchi muhim omillar ekanligi asoslangan, turk tilida o‘zbek tiliga qaraganda inson xususiyatlarini ifodalovchi fitonimlar ko‘pligi aniqlangan;

har ikki tildagi inson xarakteri va tashqi ko‘rinishini ifodalovchi birliklarning muloqot jarayonida namoyon bo‘ladigan va faollashadigan konnotativ hamda kognitiv xususiyatlari dalillangan;

ashyoviy materiallarga tayanilgan holda o‘zbek va turk tillaridagi zoomorf hamda fitomorf komparativ birliklarning badiiy asarlarda faol qo‘llanilishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

zoomorf hamda fitomorf komparativ birliklar nafaqat tilning ichki mexanizmi, balki olam lisoniy manzarasining reallashuvi, borliqda sodir bo‘luvchi hodisalar, ayniqsa, inson ichki olami hamda tashqi ko‘rinishini bildirishi asoslangan;

turk va o‘zbek tillarida olam manzarasini zoomorf hamda fitomorf komparativ birliklar orqali qiyoslash natijasida ularning ko‘chma ma’nolari tahlil qilingan, olam manzarasining antroposentrik va lingvomadaniy belgilari yoritib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi dissertatsiyada foydalanilgan nazariy ma’lumotlarning ishonchli manbalardan olinganligi, tanlangan manbalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, muammoning aniq qo‘yilganligi, qo‘llangan yondashuv usullari, keltirilgan tahlil, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olam lisoniy manzarasining lingvomadaniy qiymati belgilanganligi, turk va o‘zbek tillarida zoomorf va fitomorf madaniy kodlar bo‘yicha xulosalarga kelinganligi qardosh tillarni qiyosiy aspektda olib boriladigan tadqiqotlar uchun muhim ilmiy-nazariy manba bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Olingan xulosalarning amaliy ahamiyati oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakultetlarida “Lingvomadaniyatshunoslik”, “O‘zbek va turk tillarining qiyosiy tipologiyasi”, “Qiyosiy tilshunoslik”, “Kontrastiv lingvistika” kabi fanlarni o‘qitish, maxsus kurs va seminarlar tashkil etish, darslik va qo‘llanmalar yaratish, ikki tilli lug‘atlar tuzish hamda tarjimashunoslikda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Turk va o‘zbek lisoniy manzarasida inson xarakter-xususiyatini bildiruvchi zoomorf va fitomorf komparativ birliklarni lingvomadaniy tadqiq etish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

turk va o‘zbek tillarining olam lisoniy manzarasining shakllanishi, olamning zoomorf va fitomorf manzarasining tarixiy ildizlari bilan bog‘liq natijalaridan OT-F1-71 “Ilk va o‘rta asrlar Markaziy Osiyo mintaqasida etnolingvistik vaziyat” (2017-2020) nomli ilmiy loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining 2022-yil 7-apreldagi 89-03-5134-son ma‘lumotnomasi). Natijada O‘rta asrlar Markaziy Osiyo mintaqasidagi turkiy xalqlarning olam lisoniy manzarasidagi mushtarak hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib berishga xizmat qilgan;

turk va o‘zbek tillaridagi inson fe‘l-atvorini ifodalovchi zoomorf va fitomorf komparativ birliklarning kelib chiqishi, lingvomadaniy xususiyatlariga oid tarixiy faktlar haqidagi ma‘lumotlardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Foreign language” kanali “Hasbi-hol” ko‘rsatuvining senariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradio kompaniyasi “Foreign language” kanali DUKning 2022-yil 5-apreldagi 04-25-12/15-son ma‘lumotnomasi). Natijalar tatbiqi ko‘rsatuvning ilmiy dalillarga boy va qiziqarli bo‘lishini ta‘minlashga asos bo‘lgan;

turk va o‘zbek tillaridagi inson ichki olami hamda tashqi ko‘rinishini ifodalovchi zoomorf va fitomorf birliklarning funksional-semantik, pragmatik, kommunikativ-kognitiv xususiyatlari bilan bog‘liq natijalaridan OT-F1-71 “Ilk va o‘rta asrlar Markaziy Osiyo mintaqasida etnolingvistik vaziyat” (2017-2020) nomli ilmiy loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining 2022-yil 7-apreldagi 89-03-5134-son ma‘lumotnomasi). Natijada “Qiyosiy tilshunoslik”, “Qiyosiy tarjimashunoslik”, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”, “Lingvistik tahlil metodlari”, “Lingvomadaniyatshunoslik” kabi fanlarning nazariy asoslarini boyitishda manba bo‘lib xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida ma‘ruza shaklida bayon qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 21 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola (2 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda) e‘lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 139 sahifani tashkil etadi. Ishga 2 betlik ilova tirkalgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Zamonaviy tilshunoslikda olamni bilishda milliy-madaniy, lingvogeografik va lingvoaksiologik omillar, olamning lisoniy manzarasini shakllanishida madaniyatlararo muloqotning o'zni masalalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Olam manzarasi til, adabiyot, din orqali ifodalanadi, muayyan madaniyatga oid insonlar faoliyatining verballashuvida namoyon bo'ladi va etnosga xos madaniy kodlar, stereotip tushunchalarni yuzaga keltiradi. Chunonchi, inson xarakteri va xususiyatini ifodalovchi zoomorf hamda fitomorf madaniy kodlarning tahlili tildagi umumiylik va xususiylik kategoriyasini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular jamiyat hayoti, psixologiyasi, har bir xalqning urf-odati, mentaliteti, madaniyati va axloqini ko'rsatuvchi asos bo'lib xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning "Olam lisoniy manzarasida zoomorf va fitomorf komparativ birliklar" nomli birinchi bobi 3 paragrafdan iborat bo'lib, mazkur bobda zoomorf/fitomorf/komparativ birliklar va ularning turk hamda o'zbek lingvomadaniyatidagi o'zni haqida so'z yuritilgan. Barcha ilmiy izlanishlarda bo'lgani kabi tadqiqot obyekti bo'yicha sog'lom ilmiy natijalarga erishish uchun mavzu bilan bog'liq asosiy terminlarni belgilash, ularni tushunarli ishlatish kerak.

Til ilmiga birinchilardan bo'lib, "olamning lisoniy manzarasi" tushunchasini olib kirgan Y.L.Vaysberger "til o'z egasiga boshqa tillardagidan farqli bo'lgan dunyoni umumiy ko'rish tarzini ato etishi", "ona tili hamda har bir shaxsning ruhiy shakllanishi o'zaro chambarchas bog'liqligi" va "shuning uchun ham tilshunoslik tillarini xalqlar madaniyatining ko'zgusi sifatida o'rganmog'i lozim" ekanligini alohida uqtiradi²³.

Dissertatsiyada turk va o'zbek tillaridagi inson qiyofasini ifodalovchi zoomorf va fitomorf komparativ birliklarni qiyoslab tahlil qilishdan oldin mazkur terminlarga izoh berildi. Tilshunoslikda oraliq sohalarning paydo bo'lishi tabiiy ravishda gibridlashgan terminlarni yuzaga keltirdi. Shunday terminlardan biri sifatida zoomorf leksik birligini ko'rsatish mumkin. Zoomorf atamasi tuzilishiga ko'ra ikki qisimli bo'lib, "hayvonga oid" ma'noli zoo termin elementi va "shakl" ma'nosidagi morf so'zining birikuvidan hosil bo'lgan. Zoo termin elementi maxsus lug'atda quyidagicha izohlangan: zoo... [yun. Zoon – jonivor, hayvon]–o'zlashma qo'shma so'zlarning birinchi qismi bo'lib, o'zi qo'shilgan so'zlar bilan birgalikda hayvonlarga, hayvonot olamiga dahldorlik ma'nolarini bildiradi²⁴. Morf ham hozirgi kunda termin element sifatida faol qo'llanadi va bir necha terminlarning tarkibiy qismi bo'lib keladi. "Xalqaro termin elementlarning izohli-illyustrativ lug'ati"da uning yunoncha morphe so'zi ekanligi, o'zlashma qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi bo'lib kelishi, "shakl", "tuzilish" ma'nolarini anglatishi aytiladi. Zoomorf termini dastlab lingvistikada qo'llanmagan, lingvomadaniyatshunoslikning rivojlanishi bilan tilshunoslikda ham faollashdi. Bugungi kunda mazkur atamasi ostida tilshunoslikda "hayvonot dunyosiga oid til birligi" ma'nosida qo'llanadi²⁵.

²³ Вайсбергер Й.Л. Родной язык и формирование духа. – Москва: Едиториал УГСС, 2004. С. 120, 135, 173.

²⁴ Мадвалиев А., Махкамов Н., Мирахмедова З., Саиднўъмонов А. Халқаро терминэлементларнинг изоҳли-иллюстратив лугати. – Тошкент: Донишманд зиёси, 2020. – Б. 83.

²⁵ Шарова А. Зооморфизмы как средство репрезентации гендерных концептов в английской лингвокультуре // Ярославский педагогический вестник. №3, 2010 – С. 144-148.

Fitomorf hozirgi tilshunoslikning lingvomadaniy aspektidagi ishlarda tez-tez qo'llanayotgan terminlardan biridir. Komparativ birliklar termini komparativistika-qiyosiy tilshunoslikning degan tilshunoslik sohasining shakllanishi bilan yuzaga kelgan. Mazkur atamadagi komparativ so'zi "qiyoslashni ifodalaydigan", "qiyoslash bilan bog'liq bo'lgan" degan istilohiy tushunchaga ega²⁶. Komparativ birlik esa o'zida "qiyoslash vazifasidagi so'z yoki ibora" ma'nosini anglatadi.

O'xshatish, metafora kabi hodisalar tilshunoslikda komparativ troplar deb ham yuritiladi²⁷. Bunda, albatta, o'xshatishning asosida ham, metaforaning asosida ham qiyoslash-o'xshatish usuli yotgani e'tirof etiladi. Aslida metafora ham o'xshatish, faqat u – yashirin yoki qisqargan o'xshatishdir²⁸. Bu jihatni o'z vaqtida Aristotel juda aniq va sodda qilib ko'rsatib bergan. Olimning fikricha, o'xshatish ham metaforadir, chunki ular o'rtasida arzimagan farq mavjud, xolos. Masalan, "u sherday tashlandi" tarzidagi ifodada o'xshatish bor, agar ifoda "sher tashlandi" tarzida o'zgartirilsa, metafora yuzaga keladi²⁹. Ba'zi tadqiqotchilar hatto "metafora-o'xshatish" terminini ham qo'llaydilarki, bunda ular o'rtasidagi umumiy jihatlar e'tirof etiladi, ularning zaminidagi asosiy omil o'zining aniq ifodasini topadi³⁰. O'xshatishga juda yaqin hodisa sanalmish metaforalarning turg'un va erkin turlari farqlanadi. Turg'un metaforalarga nisbatan V. Vinogradov "vizual metaforalar" terminini qo'llagan³¹.

Ma'lumki, insonlarning o'xshatish va qiyoslashga asoslangan obrazli fikrlash jarayonining vujudga kelishi badiiy tafakkurning o'sishi, izchil rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday mushohadalar avlodlar va ajdodlarning tabiat va koinotni bilishga, bunda mavjud sirlarni yechishga intilishlari, biroq izohlashdagi o'zgarishlar tufayli ularni sirli va ilohiy kuch sifatida baholashi, shuningdek, mifik obraz sifatida tasavvur etish hollari natijasida vujudga kelgan. Xususan, ibtidoiy dunyoqarash va diniy e'tiqodga bog'liq holda hayvonot, nabotot va koinotdagi mavjud narsalar jonzotlarga totemistik munosabatlar natijasida sher, arslon, yo'lbars, qoplon, burgut, lochin, qirg'iyalar mard, jasur, botir, dovyurak kishilarga; qarg'a, quzg'unlar qonxo'r, toshyurak kishilarga; tovus, bulbullar go'zal, chiroyli xulqli kishilarga; gul, g'uncha va oy, yulduz, quyosh singarilarini go'zal va suluv qizlarga; yantoq, saksovul kabilar xunuk kishilarga nisbatan tashbeh etilgan va bu holat og'zaki va badiiy ijodda keng tarqalgan eng qadimgi tasavvurlar mahsulidir. Bularning barchasi insoniyat o'zini tabiatning sehrli olami bilan yoki aksincha, tabiatdagi mavjud narsa va hodisalarni insoniyatning xulq-atvori, ichki dunyosi bilan bog'lashi, ya'ni, qiyoslashi, o'xshatishi, sifatlashi kabilar bilan bog'liq. Ular tilimizdagi ko'plab badiiy ifoda vositalarning vujudga kelishida asos bo'lgan.

O'zbek tilshunosligida ham til va madaniyat bog'liqligi masalalari e'tibordan chetda qolgan emas. Xususan, N. Mahmudovni ko'rsatishicha: "til va madaniyat deganda, ko'pincha, "nutq madaniyati" deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o'rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko'rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha,

²⁶ Ахманова О. Словарь лингвистических терминов. 2-е изд. – Москва: Едиториал УРСС, 2004. – С.201.

²⁷ www.ziyouz.com kutubxonasi.

²⁸ Арнольд И. Лексикология современного английского языка. – Москва: Наука, 1986. – С.146.

²⁹ Аристотель. Риторика // Античные риторика. – Москва: Изд. Московского университета, 1978. – С. 134.

³⁰ Григорьев В. Поэтика слова. – Москва: Наука, 1979. - С. 200

³¹ Виноградов В. Основные типы лексических значений слова // Вопросы языкознания №5, 3, 1953. – С. 29.

madaniyatni o'rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo'lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma'nosi "aqliy-ma'naviy yoki xo'jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (nutq madaniyati)" emas, balki "kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmui (madaniyat tarixi, o'zbek madaniyati)" demakdir"³².

Insonning ko'rinishi va tabiatini sifatlovchi hamda ochib beruvchi birliklar tahlili uzoq yillardan buyon tilshunoslarni qiziqtirib keladi. Ayniqsa, ushbu masala keyingi yillarda ko'proq lingvomadaniyatshunoslikning obyektiga aylandi. Fanda madaniyat tushunchasiga ko'plab yondashuvlar bor. Madaniyat keng ma'noda – bu "obyekt va qat'iy belgilangan tartib-qoidalar yig'indisi bo'lib, insonning xulq-atvori, xatti-harakatlari, olgan bilimlari, o'zlikni anglash, dunyoning ramziy ma'nolarini tushunish va bilish shakllarini o'z ichiga oladi"³³. Shu jihatdan ham ayni muammoga lingvomadaniyatshunoslar diqqat qaratmoqda.

Bu yo'nalishda rus, ingliz, fransuz, turk, o'zbek tilshunosligida salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, rus tilshunosi I. Voloshkinaning "Inson xarakteri" – frazasemantik maydon (fransuz tili materiali asosida)"³⁴ mavzusidagi dissertatsiyasini ko'rsatish mumkin. Ushbu tadqiqotda inson xarakteri bilan bog'liq birliklar dunyoning lingvistik tasvirining barqaror parchasi o'laroq ko'rib chiqilgan. Shuningdek, "inson xarakteri" tushunchasini lingvistik jihatdan o'rganishga harakat qilingan, xarakter ruhiy va intellektual bog'liqligi tushuntirilgan. Ishda yozilishicha, shaxs fe'l-atvori ona tilida so'zlashuvchilar ongida ko'p marotaba bilvosita, shaxs tomonidan ifodalangan xatti-harakatlarning murakkab komplekslarini kuzatish orqali aks ettirilgan aqliy obyektlardir. Tahlil qilingan frazeologik materiallar insonga xos xususiyatlar, uning ruhiy va emotsional holatlari, jismoniy harakatlari, odamlar bilan munosabatlari va boshqalar atrofida to'plangan.

G. Vatletsov zoomorf lug'aviy birliklar tizimi va uning inglizcha-ruscha ekvivalentligini o'rganish asnosida zoonimlarning zamonaviy ishlab chiqarish va kasbiy sohadagi foydalanish jihatlariga ham e'tibor qaratadi"³⁵.

Tabiat bilan bog'liq lingvomadaniy kodlarni quyidagi ikki guruhga bo'lish maqsadga muvofiq.

1) dunyoni arxetipik idrok etish bilan bog'liq asosiy metaforalarga asoslangan (hamma narsaning ildizlari va mevalari bor, har qanday narsa urug' va dondan kelib chiqqan) fitomorfik birliklar;

2) hayvonlarning xossalari va xususiyatlarini odam yoki jonsiz narsaning xossalari va xususiyatlariga o'tkazishga asoslangan zoomorfik birliklar.

Hayvonot yoki o'simliklardunyosi bilan bog'liq kodlar umumiy qilib biomorf kodlar birikmasi bilan ham ataladi. Bunda hayvon, hasharot, qush va o'simliklar nomi aks etadi. D.Tosheva o'zbek tilidagi eng faol qo'llanuvchi zoonimlar *sirasiga it, ilon,*

³² Махмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2017. – Б. 61.

³³ Левит С. Энциклопедия. Культурология. XX век. – Алтейя: Университетская книга, 1998. – С. 445.

³⁴ Волошкина И. Фразеосемантическое поле «характер человека» // Дис. канд. филол. наук. – Воронеж, 2009. – С. 233.

³⁵ Ватлецов С. Систематика зооморфной лексики и ее англо-русская эквивалентность. – Автореферат, Нижний Новгород, 2001. – С. 278.

ot, eshak, qush, quyon, tuya kabi kiritish mumkinligini bayon etadi³⁶. Bu hayvonlarning turli xususiyatlari va insonga xos fe'l-atvor, xatti-harakatlar o'rtasida o'xshashlik kuzatiladi. O'xshatishlarda biomorf kodlar orqali insonning deyarli barcha xususiyatlarini aks ettirish mumkin.

Tadqiqot ishining ikkinchi bobi "**Turk va o'zbek tillarida inson obrazining zoomorf komparativ birliklarda ifodalanishi**" shaklida nomlangan. Bob 2 paragrafdan iborat bo'lib, unda inson suvrati va siyratini ifodalovchi zoomorf komparativ birliklar guruhlariga bo'liq tahlil etilgan.

Tilshunoslikda zoonimlar hayvonlarga qo'yilgan otlarni bildirishi aytiladi. Bu o'rinda muayyan xalqning tabiatda mavjud hayvonot olamiga tegishli birliklarning nomi tahlili masalasiga e'tibor qaratiladi. Zoonimlar barcha tillarning leksik tarkibidagi eng qadimgi semantik guruhlardan biri sanaladi. Hayvon nomlari biror mavjudotning nomi bo'lishi bilan birga xalq lisoniy tafakkurida insonning ichki va tashqi qiyofasini ifodalaydigan samarali vosita hamdir. Hayvon obrazi orqali insonga xos biror xususiyatni aks ettirish, kishi xarakterini ochib berish orqali shu xalqning olam lisoniy manzarasi yuzasidan muayyan xulosalarga kelishi mumkin bo'ladi.

O'zbek va turk tillarida inson ichki dunyosi va tashqi qiyofasini gavdalantirishda keng qo'llanadigan zoonim *ho'kiz* yoki *sigir* so'zlari o'rin oladi. Turk tilida *ho'kiz* zoonimi *tosun* so'zi yordamida beriladi. Ushbu birlik "pahlavon, botir" ma'nosidagi obrazli metafora vazifasini ham o'taydi. Turklarda farzand ko'rish bilan bog'liq tilaklarda "tosun gibi" o'g'il bersin tarzidagi jumla qo'llanadi. O'zbek xalqining olam lisoniy manzarasida ushbu birlikning muqobili siqatida qo'chqorday o'g'il bersin birligi ishlatiladi.

Turk tilida dana zoonimi ayni chog'da dana göz birikmasi yordamida insonning ko'zini ifodalashda, ko'zlarning katta-katta, yirik ekanligiga nisbatan qo'llanadi. Dana göz anglatgan ma'no e'sek gözlü birikmasi bilan ifodalanadi.

Inson tabiati va ichki dunyosi hamda tashqi ko'rinishini anglash nihoyatda murakkab, negaki inson xarakteri toki hayot ekan, o'zgarib boraveradi, ular navbatmanavbat kashf etilaveradi. Ana shu murakkablikni yengib o'tishda yoki boshqa shaxs haqida ta'rif berganda yoki uning xususiyati haqida gapirganda, aniq tasavvur uyg'otish uchun tabiatda mavjud, odamlar yaxshi biladigan muayyan zoonimga qiyoslaydi.

Turk xalqi azaldan otning odamni yomon ruhlardan himoya qilishiga ishonishgan³⁷. Turk millati uchun ramziy hayvonlar sifatida bo'ri, burgut va kiyikka alohida e'tibor berib kelishgan³⁸. Qayd etilgan hayvonlar oilaga baraka, hotirjamlik olib kelishiga ishonishgan. Turk madaniyatida o'zining katta o'rniga ega bo'lgan hayvonlar nomlari inson ismlariga aylangan. Kuchni ifodalovchi zoonimlar sifatida *arslon, leopard, qoplön (aslan, pars, kaplan)* kabi yirtqich hayvonlar buning isbotidir. Bozkır madaniyatshunosligida *ho'kiz-tosun* ning ham ahamiyati katta va u har doim kuch-quvvat timsoli sanalgan.

³⁶ Tosheva D. Zoonim komponentli maqollarning lingvoturkologik xususiyatlari // Filol, fan. bo'yicha falsafa dok. diss. – Toshkent, 2017. – B. 152.

³⁷ Yüce A. Evliya alintilarında hayvan sembolizmi. // Türk Dili ve Edebiyatı Anabilim Dalı Yüksek Lisans Tezi. – Antalya, 2022. – S. 23

³⁸ Yüce A. Ko'rsatilgan asar. – Antalya, 2022. – S. 35

O‘zbek va turk tillarida keng tarqalgan, kishi tabiatidagi xususiyatlarni ifodalashda ishlatiladigan zoonimlardan biri mushuk so‘zidir. “Mushuk” zoonimi o‘zbek tilida, asosan, “mushukdek suykaliş”, ya’ni “erkalanish” ma’nosida kelsa, turk xalqida *kedi gibi* birligi keng tarqalgan bo‘lib, “moslashuvchan”, “kirishimli” ma’nolarida ishlatiladi. Turk lisoniy manzarasida “mushuk” zoonimi insonlarga nisbatan qo‘llanganda, asosan, ijobiy ma’no tashiydi. Masalan: *kedi gibi dört ayak üstüne düşmek, kedi gibi dört ayak üzerine düşmek* iboralari “qiyin vaziyatlardan osonlik bilan chiqadigan kishiga” nisbatan ishlatiladi. Yoki: Geçen mektubumu postaya verdiğimin ertesi günü, Tabiat Bilgisi dersindeyken, okul müdürüyle birisi daha dershaneye girdi. Müfettişmiş, öğretmenimizle bir süre konuştuktan sonra, Oğuz‘u derse kaldırdı. Sen Oğuz‘u tanımazsın. Bizim okula bu yıl, dersler başladıktan sonra geldi; sen buradan gittikten sonra. Taşrada bir okuldaymış. Sonra İstanbul‘a taşınmışlar. Daha okula ilk geldiği gün hepimizi şaşırttı. Neden, biliyor musun? Kedi gibi çevik bir çocuk da ondan³⁹. Tarjiması: Anatomiya darsida o‘tirgan edik, direktor bir odamni boshlab sinfga kirib keldi. Bilsak, inspektor ekan. Inspektor o‘qituvchimiz bilan allanimalarni gaplashib olgach, O‘g‘uz degan bolani o‘rnidan turg‘izdi. O‘g‘uzni sen tanimaysan. Sendan keyin kelgan. Ilgari Tashrada turisharkan, shu yili Istanbulga ko‘chib kelishibdi. Maktabga birinchi kelgan kuniyoq bu bolaga qoyil qoldik. Nimasiga qoyil qoldik, bilasanmi? O‘lgudek chaqqon bola ekan. Xuddi maymunning o‘zi-ya...⁴⁰

Yuqorida keltirilgan asliyat parchasida O‘g‘uzning chaqqonligi, abjirligi mushukka, ya’ni “kedi”ga qiyos etilsa, o‘zbek olam lisoniy manzarasida bu birlik tarjimada *maymun* zoonimi bilan berilgan, chunki o‘zbeklar tasavvurida *mushuk* zoonimiga qaraganda sakrab, irg‘ishlab abjir harakatlar qiladigan odamni ko‘proq *maymun* ga o‘xshatish keng tarqalgan. Buning isbotini boshqa asarlarda uchratish mumkin. Xususan, A.Ko‘chimovning “Bir juft olma” asarida ushbu zoonim quyidagicha kelgan: “Men jo‘shib, toshib ketganimda maymunga o‘xshab sakrab olmaga chiqaman, shoxlarining uch-uchida loladek qip-qizarib turgan qirmizi olmalarni qoqaman, u teradi”⁴¹. Shu o‘rinda yuqoridagi asar tarjimoni M.Hakimovning O‘g‘uzning chaqqonligi, abjirligini aks ettirishda mushuk o‘rniga maymun zoonimidan foydalanishi bilan o‘zbek tafakkurini to‘liq aks ettira olishga erishganiligini ta’kidlash to‘g‘ri bo‘ladi.

Tarkibida zoonim komponentli frazeologik birliklarning rivojlanishi inson va hayvonlarning uzoq ming yillik munosabatlariga borib taqaladi. Mazkur munosabatlar ko‘p qirrali bo‘lib, ular turfa shakllarda namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda ham inson faoliyatining aksariyat sohalari, xususan, qishloq xo‘jaligi, sanoat, sport, ilm hayvonlar bilan bog‘liq. Tarixiy, geografik va ijtimoiy omillar ta’sirida rivojlanayotgan “inson – hayvonot dunyosi” munosabati o‘z navbatida tilga ham ta’sir ko‘rsatadi. Ta’kidlash kerakki, tilning so‘z boyligi qator guruhlarining ichida faqat antroponimlar va zoonimlargina jonli mavjudotni ifodalashga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqib, zoonim komponentli iboralarga ham antroposentrik xususiyat xos deyish mumkin. Binobarin, ular zoonimlarning o‘zidagi lingvistik xususiyatlarda namoyon bo‘ladi. Shu

³⁹ Nesin A. Şimdiki Çocuklar Harika. – İstanbul: Nesin Yayınevi, 2005. – S. 53.

⁴⁰ Hakimov M. tarjiması. G‘aroyib bolalar. – Toshkent: Sharq, 2006. – B. 138-139.

⁴¹ Ko‘chimov A. Bir juft olma. – Toshkent: Sharq, 2018.

ma'noda zoonim komponentli iboralarni o'rganish o'ziga xos dolzarblik kasb etadi. Zoofrazeologizmlar tarkibida uy hayvonlari: *it, mushuk, qo'y, ot, ho'kiz, sigir, echki, tuya, tovuq*; yovvoyi hayvonlar: *tulki, quyon, yo'lbars, ayiq, bo'ri, sher, to'ng'iz*; sudralib yuruvchilar: *ilon, toshbaqa*; kemiruvchilar: *sichqon, olmaxon*; qushlar: *chumchuq, qarg'a, bulbul, bedana, mayna, g'oz, o'rdak, tovus*; suvda yashovchilar: *baliq, qurbaqa*; hasharotlar: *pashsha, chivin, bit, burga, ari* va boshqa zoonimlar ishtirok etadi. Turkiy tillardagi "zookomponentli frazeologik birliklar jismoniy sifat, tashqi ko'rinish, xarakter belgilari, intellekt, inson faoliyati kabilarni aks ettiradi"⁴².

Turk va o'zbek tillaridagi inson xarakteri va tashqi ko'rinishini gavdalanitirishda xizmat qiluvchi faol zoonimlardan biri *kurt gibi, kurt, bo'ri, bo'ridek* birligidir. Ushbu zoonim turkiy xalqlar dunyoqarashida alohida ahamiyatga ega. Qadimdan ajdodlar bo'riga boshqacha munosabatda bo'lishgan. Bo'ri turkiy xalqlar tasavvurida totem darajasiga ko'tarilgan hayvon hisoblanadi. Shuning uchun u bilan bog'liq tushunchalarning aksari ijobiy ma'noda kasb etadi. Ayniqsa, bu holatni turk tilida yaqqol ko'rish mumkin. Turk tilida ijobiy ma'nodagi stereotip sifatida "o'z ishinig ustasi", "kirishuvchan" kishilarga nisbatan *kurt gibi* tashbehi qo'llaniladi. Bundan tashqari "ish ko'zini biladigan, uddaburon" shaxslarga yoki "mehribon va ishonchli do'st" ma'nosida ham "kurt gibi" tarzida qo'llanadi.

Dissertatsiyaning "**Turk va o'zbek tillarida inson obrazini tasvirlovchi fitomorf komparativ birliklar tahlili**" nomli uchinchi bobi 2 paragrafdan iborat. Paragraflar ham o'z ichida kichik qismlarga bo'lingan. Mazkur bobda inson ichki dunyosi hamda tashqi ko'rinishini fitonimlar vositasida ifodalash masalasi ko'rilgan.

